



*Xusan AKRAMOV,*  
*O'zbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qilish akademiyasi dotsenti, PhD*  
*E-mail: x.f.akramov@proacademy.uz*

*O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi professori, DSc B.Farfıyev taqrizi asosida*

### IMOM AL-BUXORIY MEROSI MADANIY KAPITAL NAZARIYASI KONTEKSTIDA

Annotatsiya

Mazkur maqolada Imom al-Buxoriy merosi zamonaviy sotsiologik paradigma — Pierre Bourdieu tomonidan ishlab chiqilgan madaniy kapital nazariyasi asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda Imom al-Buxoriyning hayoti va ilmiy faoliyati sabab-oqibat metodologiyasi, normativ-institutsional va diskursiv yondashuvlar orqali o'rganilgan. Hadislar diniy manba sifatidagina emas, balki jamiyatda ijtimoiy me'yorlar, axloqiy qadriyatlar va sanksiyalarni legitimlashiruvchi institut sifatida talqin etiladi. Madaniy kapitalning inkorporatsiyalashgan, obyektivlashgan va institutsionallashgan shakllari Imom al-Buxoriy faoliyati misolida ochib beriladi. Tadqiqot natijalari hadislarning ratsional tafakkur, ijtimoiy barqarorlik va madaniy integratsiyani ta'minlovchi sotsiokultural mexanizm ekanini asoslaydi.

**Kalit so'zlar:** Imom al-Buxoriy, hadislar, madaniy kapital, ratsional tafakkur, ijtimoiy me'yorlar, normativ tizim, sotsiologik tahlil, diniy institutlar, axloqiy sanksiyalar, ijtimoiy barqarorlik

### НАСЛЕДИЕ ИМАМА АЛЬ-БУХАРИ В КОНТЕКСТЕ ТЕОРИИ КУЛЬТУРНОГО КАПИТАЛА

Аннотация

В статье наследие Имама аль-Бухари анализируется в контексте социологической теории культурного капитала, разработанной Пьером Бурдьё. Исследование основано на причинно-следственной методологии, нормативно-институциональном и дискурсивном подходах. Хадисы рассматриваются не только как религиозные источники, но и как социальные институты, формирующие нормы, моральные ценности и механизмы социальной легитимации. На примере научной деятельности Имама аль-Бухари раскрываются инкорпорированная, объективированная и институционализованные формы культурного капитала. Результаты исследования показывают, что хадисы выступают рациональным социокультурным механизмом обеспечения социальной стабильности и ценностной интеграции общества.

**Ключевые слова:** Имам аль-Бухари, хадисы, культурный капитал, рациональное мышление, социальные нормы, нормативная система, социологический анализ, религиозные институты, моральные санкции, социальная стабильность.

### THE LEGACY OF IMAM AL-BUKHARI IN THE CONTEXT OF CULTURAL CAPITAL THEORY

Annotation

This article analyzes the scholarly legacy of Imam al-Bukhari through the lens of Pierre Bourdieu's theory of cultural capital. The study employs causal analysis, normative-institutional, and discursive methodologies to examine Imam al-Bukhari's life and scientific activity. Hadiths are interpreted not only as religious texts but also as social institutions that legitimize moral norms, values, and social sanctions. The embodied, objectified, and institutionalized forms of cultural capital are identified within Imam al-Bukhari's intellectual contributions. The findings demonstrate that hadiths function as a rational sociocultural mechanism that promotes social order, moral regulation, and cultural stability in society.

**Key words:** Imam al-Bukhari, hadith studies, cultural capital, rational thought, social norms, normative system, sociological analysis, religious institutions, moral sanctions, social stability.

**Kirish.** Jamiyatning barqaror taraqqiyoti, avvalo, uning ma'naviy va madaniy kapitalining boyligiga, ijtimoiy me'yorlarning barqarorligiga va axloqiy qadriyatlarning uzviyligini ta'minlay oladigan institutlarning faoliyatiga bog'liq. Shu nuqtai nazardan qaralganda, Imom al-Buxoriy merosi, xususan uning "Al-jome' as-sahih" asari [1], nafaqat diniy, balki ilmiy va sotsiologik tahlil uchun ham beqiyos manbadir.

Imom al-Buxoriy (810–870) [1] hadislarni ilmiy ishonchlilik, ratsional tahlil va ijtimoiy legitimatsiya mezonlari asosida [2], [3] tasniflagan olim sifatida musulmon tafakkurida o'ziga xos madaniy paradigma yaratgan. Uning asarlari, xususan "Al-jome' as-sahih", diniy me'yorlarni ijtimoiy va axloqiy normalarga aylantirish jarayonining ilmiy asosini belgilaydi. Bu holat hadislarni faqat diniy manba emas, balki sotsiologik ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy institut sifatida talqin etish imkonini beradi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Mazkur maqola Pierre Burdiyo tomonidan ishlab chiqilgan madaniy kapital nazariyasini [4], [5] Imom al-Buxoriy hayoti va ilmiy faoliyatiga tatbiq etadi. Burdyo konsepsiyasidagi madaniy kapitalning uch shakli — inkorporatsiyalashgan (embodied), obyektivlashgan (objectified) va institutsional (institutionalized) holatlari Imom al-Buxoriy faoliyatining sabab-oqibat tahlili orqali yoritiladi. U yaratgan ilmiy metodologiya, hadislarni sahihlik mezoniga ko'ra ajratish prinsipi va ratsional tanlov yondashuvi — madaniy kapitalning ijtimoiy konvertatsiya jarayonini ifodalaydi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda Imom al-Buxoriyning merosi ilk bor sotsiologik paradigma — madaniy kapital nazariyasi asosida talqin qilinmoqda. Bu yondashuv hadislarni normativ-institutsional tizim, axloqiy me'yorlarni shakllantiruvchi matnlar hamda ijtimoiy haqiqat konstruksiyasining elementi sifatida o'rganish imkonini beradi.

Shunday qilib, maqolada Imom al-Buxoriy merosi ratsional tafakkur, madaniy kapital va ijtimoiy me'yorlar o'zaro bog'liqligida tahlil qilinadi. Bu tadqiqot natijalari zamonaviy islom sotsiologiyasi, ijtimoiy falsafa va madaniyatshunoslik fanlarida yangi konseptual yo'nalishlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Imom al-Buxoriy merosini sotsiologik tahlil qilishda tadqiqot uchta asosiy metodologik yondashuvga tayangan: 1) sabab-oqibat tahlil metodologiyasi, 2) madaniy kapital nazariyasi (P. Bourdieu modeli), va 3) normativ-institutsional tahlil.

Birinchi, sabab-oqibat (kausal) metodologiya asosida [6] Imom al-Buxoriy hayotidagi har bir ilmiy, ijtimoiy va ruhiy hodisa uning keyingi faoliyati va jamiyatdagi ta'sir mexanizmlari bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilindi. Masalan, Buxoriyning bolalik davridagi ko'rish qobiliyatini yo'qotib, onasining duosi bilan tiklanishi — iymon va e'tiqodning ijtimoiy iymon modeli sifatida, shuningdek, diniy e'tiqodning madaniy kapitalga aylanishi jarayoni sifatida talqin qilindi. Bu yondashuv hadislarining inson ongida ratsional refleksiya jarayonini tushunish imkonini beradi.

Ikkinchi, Pierre Bourdieu tomonidan ishlab chiqilgan madaniy kapital konsepsiyasi [4; 241-258], [5; 248] asosida Imom al-Buxoriy faoliyatining uch bosqichi aniqlanadi:

Inkorporatsiyalashgan madaniy kapital – bilim, tafakkur, iymon, ijtimoiy o'zini tutish me'yorlari shaklida mujassam bo'lgan;

Obyektivlashgan madaniy kapital – yozma meros (asarlari, hadis to'plamlari), ilmiy metod va ishonch tizimi ko'rinishidagi madaniy boyliklar;

Institutsionallashgan madaniy kapital – ilmiy tan olish, hadis ilmi maktablarida qo'llanilishi va Buxoriyning xalqaro miqyosda e'tirof etilishi shaklida namoyon bo'ladi.

Bu yondashuv P. Bourdieu ta'riflagan "kapital konvertatsiyasi" mexanizmini aniqlashga imkon berdi. Ya'ni, diniy bilimlar sotsiologik tilda — madaniy, axloqiy va ijtimoiy resurslarga aylangan. Bu konvertatsiya hadislarining jamiyatdagi normativ-me'yoriy kuchini tushuntiradi.

Uchinchi, normativ-institutsional yondashuv [7] yordamida hadislar jamiyatda me'yoriy tizimni yaratish, tartibni saqlash va axloqiy sanksiyalarni legitimlashtirish vositasi sifatida tahlil qilindi. Imom al-Buxoriy hadislar orqali jamiyatda "haq", "adolat", "ilm" kabi me'yorlarning ijtimoiy institutlar tomonidan qabul qilinishini ta'minlagan. Bu jarayon ijtimoiy tizimlarning barqarorligini ta'minlovchi "madaniy mexanizm" sifatida baholandi.

Shuningdek, tadqiqotda diskursiv tahlil usulidan ham foydalanildi [8], [9]. Hadislarning ijtimoiy mazmuni, ularning jamiyatda legitim ma'nolarga aylanish jarayoni, ma'naviy va axloqiy diskurs sifatidagi roli kontekstual tahlil qilindi. Bu tahlil orqali hadislar faqat diniy hujjat emas, balki ijtimoiy ongni shakllantiruvchi sotsiomadaniy matn sifatida o'rganildi.

Natijada, metodologik asos sifatida sabab-oqibat aloqadorligi, sotsiologik funksionalizm, va P. Bourdieu modeli uyg'unlashtirildi. Bu uyg'unlik Imom al-Buxoriy faoliyatining ratsional mohiyatini — ya'ni ijtimoiy bilim, me'yor va qadriyatlar tizimini shakllantiruvchi ilmiy-madaniy kapital sifatidagi rolini ochib berdi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Tadqiqot natijalari Imom al-Buxoriy hayoti va ilmiy merosining sotsiologik talqini orqali madaniy kapitalning uch shakli — inkorporatsiyalashgan, obyektivlashgan va institutsionallashgan — tarzida ifodalanganini ko'rsatdi. Ushbu natijalar Imom al-Buxoriy faoliyatining diniy va ijtimoiy jihatdan ratsional mohiyatini ochib beradi.

1. Inkorporatsiyalashgan madaniy kapital: diniy e'tiqod va ilmiy tafakkurning uyg'unligi asosida Imom al-Buxoriy

shaxsida madaniy kapitalning eng chuqur shakli bo'lib, inkorporatsiyalashgan holat — diniy e'tiqod, sabr-toqat, ilmga muhabbat va mehnatsevarlik orqali namoyon bo'lgan. U bolalik chog'ida duch kelgan sinovlarni (ko'rlik, qiyinchilik, ijtimoiy bosim) sabr va e'tiqod bilan yenggan. Bu holat P. Bourdieu ta'riflagan "habitus" tushunchasi bilan uyg'unlashadi [4], ya'ni jamiyatning ma'naviy mezonlari shaxsning ichki strukturasi orqali ifodalanadi.

Imom al-Buxoriyning 11 yoshida ustoz Ad-Doxiliyning xatolarini to'g'rilagani, 16 yoshida yuz minglab hadislarini yod olgani — bu shaxsiy mehnat va ma'naviy e'tiqodning birlashgan natijasidir [2]. Shu orqali u o'zida "ilmiy madaniyat"ni jismonan va ruhiy jihatdan mujassamlashtirgan. Bu asar madaniy kapitalning inkorporatsiyalashgan shaklida diniy bilimlarning ratsional ongga aylanish jarayonini ifodalaydi.

2. Obyektivlashgan madaniy kapital: hadislar to'plami va ilmiy metod sifatida Imom al-Buxoriyning asosiy asari "Al-jome' as-sahih"da o'zini namoyon etgan bo'lib, obyektivlashgan madaniy kapitalning eng yuksak namunasidir. Bu asar nafaqat diniy manba, balki ilmiy metod, epistemologik ehtiyotkorlik va ratsional tanlovning ifodasidir. U 600 ming hadis ichidan faqat 7563 tasini sahih deb tanlagan. Bunday tanlov — diniy bilimni ratsional filtrlash jarayonidir.

Ushbu faoliyat sotsiologik jihatdan qaraganda, axborot-verifikatsion mexanizm sifatida namoyon bo'ladi, ya'ni ilmiy ishonchlik me'yorlarini yaratadi. Bu jarayon orqali hadislar ijtimoiy me'yorlar tizimining markaziy komponentiga aylanadi. U "ilmiy me'yorlar"ni jamiyatning axloqiy kodlariga singdirish imkonini beradi. Shu sababli "Al-jome' as-sahih" asari diniy axborot manbai bo'lish bilan birga, ijtimoiy normativ tartibning sotsiomadaniy modeli sifatida ham talqin qilinadi.

3. Institutsionallashgan madaniy kapital: ijtimoiy tan olinuvchanlik va ramziy legitimatsiya sifatida Imom al-Buxoriy hayoti davomida egallagan ilmiy maqom, hadis ilmida e'tirof va uning asarlarining keyingi asrlarda o'qitilish tizimiga kiritilishi bilan — institutsionallashgan madaniy kapital shaklida namoyon bo'lgan. Uning ilmiy merosi nafaqat ulamolar, balki davlat, jamiyat va xalq tomonidan tan olingan.

Bu holat P. Burdiyo nazariyasidagi "ramziy kapital" tushunchasi bilan bog'liq: ya'ni madaniy kapital ijtimoiy tan olinuvchanlik orqali ramziy kuchga ega bo'ladi. Mustaqillikdan keyin O'zbekistonda Imom al-Buxoriy nomidagi markazlarning ochilishi, xalqaro anjumanlarning o'tkazilishi — uning ilmiy merosining institutsional shaklda qayta tiklanganligini bildiradi.

Bu jarayon madaniy kapitalning konvertatsiyasini ham aks ettiradi: diniy meros milliy qadriyat, ilmiy manba, va sotsiomadaniy legitimatsiya omiliga aylangan. Shu tariqa Imom al-Buxoriy merosi diniy bilimdan tashqariga chiqib, zamonaviy madaniyat va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlovchi resursga aylandi.

4. Ratsional tafakkur va ijtimoiy tizimlar o'rtasidagi uzviylikni aks ettirgan holda tahlil shuni ko'rsatadiki, Imom al-Buxoriy ilmiy faoliyatida ratsional tafakkur diniy g'oyalar bilan qarama-qarshi emas, balki ularning ichki mexanizmi sifatida ishlaydi. Hadislarni to'plash, tekshirish va tasniflash jarayoni ijtimoiy tizimdagi me'yorlarning ilmiy asoslarini shakllantirgan.

Natijalar shuni tasdiqlaydiki, hadislar jamiyatda uchta asosiy funksiyani bajaradi:

Normativ-funksional — ijtimoiy me'yor va axloqiy qadriyatlarini mustahkamlash;

Sanksion-funksional — ijtimoiy sanksiyalarni legitimlashtirish (masalan, "Kim bizga yolg'on gapirsa, u bizdan emas" hadisida) [2];

Madaniy-funksional — ma'naviy birlik va milliy identifikatsiyani shakllantirish.

Shunday qilib, Imom al-Buxoriy merosi sotsiologik nuqtai nazardan nafaqat diniy, balki ijtimoiy normativ tizimlarni barqarorlashtiruvchi madaniy kapital tizimi sifatida talqin etilishi mumkin.

Muhokama. Imom al-Buxoriy merosining sotsiologik tahlili shuni ko'rsatadiki, hadislar faqat diniy dalillar majmuasi emas, balki jamiyatda normativ, kommunikativ va sotsiomadaniy tizim sifatida faoliyat yurituvchi ijtimoiy institutdir. Bu yondashuv P. Berger va T. Lukmanning "ijtimoiy haqiqat konstruksiyasi"[8; 219] nazariyasi bilan uzviy bog'liq: har qanday diniy matn — bu ijtimoiy ongni shakllantiruvchi diskursdir, u ijtimoiy me'yorlar va qadriyatlarini yaratadi hamda ularni legitimlashtiradi.

Imom al-Buxoriy hadislarida axloqiy normalar jamiyatdagi ijtimoiy tartibni saqlovchi asosiy vosita sifatida namoyon bo'ladi. "Sizlarning eng yaxshilaringiz — odobi chiroqli bo'lganlaringizdir" kabi hadislar ijtimoiy tartib va axloqiy nazorat tizimining kodifikatsiyalangan shaklidir. Bu hadislar normativ sanksiyalarni shakllantirib, jamiyatdagi axloqiy intizomni ta'minlaydi.

P. Bourdieu nazariyasi nuqtai nazaridan qaraganda, Imom al-Buxoriy hayoti davomida madaniy kapitalning konvertatsiyasi doimiy ravishda sodir bo'lgan. U ilmiy faoliyati orqali diniy kapitalni madaniy kapitalga aylantirgan. Hadis ilmi orqali esa bu kapitalni ijtimoiy tizimlar, axloqiy institutlar va ma'naviy tuzilmalar bilan integratsiya qilgan.

Bu jarayonni "madaniy kapitalning ijtimoiy konversiyasi" deb atash mumkin. Ya'ni, diniy bilim ijtimoiy ishonchga, ijtimoiy ishonch esa ramziy legitimatsiyaga aylanadi. Shu yo'l bilan Imom al-Buxoriy ilmiy faoliyati diniy, ilmiy va ijtimoiy tizimlarni birlashtiruvchi uzviy mexanizmga aylangan.

Shuningdek, tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, hadislar ijtimoiy tizimlarning barqarorligini ta'minlovchi diskursiv kuch sifatida ham namoyon bo'ladi. Yu. Habermasning "kommunikativ faoliyat nazariyasi"[10] doirasida bu jarayon "axloqiy muloqot maydoni" sifatida tushuniladi. Hadislar orqali jamiyatda "ma'naviy kelishuv" shakllanadi, bu esa ijtimoiy birlik va barqarorlikni mustahkamlaydi.

Demak, Imom al-Buxoriy faoliyatining sotsiologik talqini uni uch bosqichda baholash imkonini beradi:

Ratsional tafakkur modeli – ilmiy va ma'naviy tahlil birligida ifodalangan;

Madaniy kapital tizimi – bilim, e'tiqod va axloqiy me'yorlarning uzviy integratsiyasi orqali shakllangan;

Ijtimoiy institut sifatida hadislar – normativ tartib, axloqiy sanksiya va kommunikativ barqarorlikni ta'minlovchi mexanizm sifatida faoliyat yuritgan.

Natijada, Imom al-Buxoriy merosi nafaqat diniy tarixning bir bo'lagi, balki sotsiologik jihatdan madaniy tizimlar barqarorligini saqlovchi ilmiy-nazariy paradigma sifatida e'tirof etiladi.

**Xulosa va takliflar.** Imom al-Buxoriy faoliyati madaniy kapital nazariyasi kontekstida o'rganilganda, uning ilmiy merosi diniy soha doirasidan chiqib, ijtimoiy va ilmiy tizimlarga uzviy singganini ko'rsatadi.

Hadislar nafaqat axloqiy ko'rsatma, balki ijtimoiy me'yor va sanksiyalarni legitimlashtiruvchi ilmiy-diniy matn sifatida talqin etilishi lozim. Imom al-Buxoriyning ratsional tafakkuri diniy e'tiqodni ilmiy ishonchlik, mantiqiy tahlil va metodologik ehtiyotkorlik bilan uyg'unlashtirgan. Madaniy kapitalning uch shakli — inkorporatsiyalashgan, obyektivlashgan va institutsionallashgan — Imom al-Buxoriy hayoti va asarlarida to'liq namoyon bo'lgan. Hadislar jamiyatda axloqiy tartib, ijtimoiy birdamlik va ma'naviy integratsiyani ta'minlovchi normativ tizim sifatida faoliyat yuritadi. Imom al-Buxoriy merosi P. Bourdieu ta'riflagan madaniy kapitalning konvertatsiya mexanizmini [4], [5] amaliy shaklda ifodalaydi, ya'ni diniy bilim ijtimoiy va madaniy kuchga aylanadi.

Tadqiqot natijalari hadislarining zamonaviy sotsiologik metodologiyalar yordamida tahlil qilinishi yangi nazariy yondashuvlarni shakllantirish imkonini berishini tasdiqlaydi. Imom al-Buxoriy hayoti sabab-oqibat yondashuvi asosida o'rganilganda, u ratsional tafakkurning amaliy modeli sifatida namoyon bo'ladi. Uning merosi sotsiologik jihatdan diniy tafakkur, ilmiy ishonch va ijtimoiy me'yorlar o'rtasidagi dialektik uyg'unlikni aks ettiradi. Shu sababli, Imom al-Buxoriy merosi bugungi kunda ham madaniy barqarorlik, ijtimoiy birdamlik va ilmiy tafakkur rivojining asosiy manbalaridan biri sifatida e'tirof etilishi lozim.

#### ADABIYOTLAR

1. Қосимов Ш. Ислом маънавияти ва маданияти. – Тошкент: Фан, 2011.
2. Al-Buxoriy, Muhammad ibn Ismoil. Al-jome' as-sahih. — Bayrut: Dor al-Fikr, 1995. — 4 jild.
3. Al-Buxoriy, Muhammad ibn Ismoil. At-tarix al-kabir. — Bayrut: Dor al-Kutub al-Ilmiya, 2001.
4. Bourdieu, P. The Forms of Capital // Richardson J. (ed.) Handbook of Theory and Research for the Sociology of Education. — New York: Greenwood Press, 1986. — P. 241–258.
5. Bourdieu, P. Outline of a Theory of Practice. — Cambridge: Cambridge University Press, 1977. — 248 p.
6. Weber, M. Economy and Society. — Berkeley: University of California Press, 1978. — Vol. 1.
7. Durkheim, É. The Rules of Sociological Method. — New York: Free Press, 1982. — 146 p.
8. Berger, P., Luckmann, T. The Social Construction of Reality. — New York: Anchor Books, 1966. — 219 p.
9. Foucault, M. The Archaeology of Knowledge. — London: Routledge, 2002. — 239 p.
10. Habermas, J. The Theory of Communicative Action. — Boston: Beacon Press, 1984. — Vol. 1.